

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TARIXGA OID TERMINLARNING O‘RGANILISHI

Xosiyat Abdurasulqizi Abduqahhorova
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi
abduqahhorovaxosiyat@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada sohaviy terminologiya va uning taraqqiyoti masalalari, shuningdek, O‘zbek tilining izohli lug‘atida tarixga oid terminlarning berilishi va ularning lingvistik tahlili masalalari atroflicha yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Soha terminologiyasi, tarixiy terminlar, terminlarning lingvistik xususiyatlari, O‘zbek tilining izohli lug‘ati, terminlar omonimligi, ko‘chma ma’noli terminlar.

STUDY OF HISTORICAL TERMS IN UZBEK LINGUISTICS

Xosiyat Abdurasul kizi Abduqahhorova
Chirchik State Pedagogical University
Teacher of the Department of Uzbek Linguistics
abduqahhorovaxosiyat@gmail.com

Abstract:

The article covers the issues of field terminology and its development, as well as the issue of historical terms in the explanatory dictionary of the Uzbek language and their linguistic analysis.

Keywords: field terminology, historical terms, linguistic features of terms, explanatory dictionary of the Uzbek language, homonymy of terms, terms with portable meaning.

Hozirgi kunda tili qurilishida terminologiya sohasi alohida o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli haqida mulohaza yuritadigan bo‘lsak, turli xil fikrlarni aytib o‘tishimiz joiz. Birinchidan, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi tomondan, ta’limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi.[2].

Tilshunos olim V.P.Danilenkoning ta’kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi (Danilenko, 1977; 8). Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so‘z yasalihi va grammatikasi tashkil qiladi.[3]

Demak, yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo'llanadigan so'zlar yig'indisidir. Biz terminlar ma'nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz degani.

Bizga ma'lumki, dunyo tilshunosligida terminologiya sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Bu yo'nalishda, ayniqsa, G.N.Gornostayev, N.N.Zabinkova, N.N.Kaden, E.Vyuster, X.Felber, V.P.Danilenko, J.K.Seyjer, B.P.Tixomirov, A.S.Gerd, D.S.Lotte, O.P.Frolova, Ye.B.Alekseyev, I.A.Gubnov, O.S.Axmanova, I.Grul, M.E.Kirpichnikov, Ye.S.Kubryakova, R.Temmermen, G.I.Shevchenkolarning ishlari diqqatga sazovor.[3]

O'zbek tilshunosligida esa, terminologiya sohasida A.Hojiyev, H.Jamolxonov, R.Doniyorov, O.Usmonov, M.Abdiyev, I.Yo'ldoshev, Z.Mirahmedova, G'.Ismoilov M.E.Umarxo'jayev, X.Dadaboyev, I.X.Sadikova, S.X.Nurmatova, O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Ahmedov, H.V.Mirzaxmedova, S.Muhamedova, S.T.Mustafayevalar tomonidan olib borilgan izlanishlar e'tiborga molik.[5]

Hozirgi tilshunoslikda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning hayotga tatbiq qilinishidagi to'siqlar, yasaliş prinsiplari va usullari xususida turfa g'oyalar, nuqtai nazarlar ko'zga tashlanadi.

Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan N.A.Martinova, D.Kamchibekova, A.Qosimov, O.Qurbonov, Z.Mirahmedova kabi olimlarning tadqiqotlarida ham sohaviy terminlar o'rganilib, lingvistik jihatlari tubdan yoritib o'tilgan.[4]

Terminlarni sohaviy o'rganganimizda, ularning lug'atlardagi istilohiy ma'nosi va lingvistik xususiyatlari haqida to'xtalamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida tarixga oid terminlarga juda ko'p duch kelamiz. Quyida biz tarixga oid terminlarni izohi va ularning lingvistik xususiyatlarini yoritamiz.

O'zbek tilidagi izohli lug'atidagi tarixga oid terminlardagi yasalişlar:

JUMALIK – (tar). Juma kuni munosabati bilan o'tkaziladigan turli marosimlar.

– Bu kun jumalik qilib chiqqan edim – dedi Qambar. (Oybek, Tanlangan asarlar.)

– Toshkentdagi jumalik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maqtar va bu maqtovga qarshi ikkinchisi: “Nega muncha maqtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da!” — dep. (A. Qodiriy, O'tgan kunlar).

JILOVXONA – (tar). 1.Shoh, xon saroylariga yoki masjid hovlisiga kiraverishdagi maxsus xona yoki bostirma.

– Jilovxonadagi namoz kutib o'tirgan qavmlar ichida Samad buqoq, Shukur so'filar ham ko'rinar edilar. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

– Yo'lchi masjidning jilovxonasidagi supachaga o'zini tashladi. (Oybek, Tanlangan asarlar).

2. Jilovdorlar istiqomat qiladigan xona

YETIMXONA – (tar) Yetimlar va qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalaydigan va o'qitadigan muassasa .

– Odamlardan yetimxona qayerdaligini va u yerdagi bolalarning hol-ahvoli qandayligini surishtirmoqchi bo'ldi. (P.Tursun, O'qituvchi).[6]

TERMACHI –1 ayn. termakash. 2 (tar). Tabiiy ravishda yetishgan meva, ildizmeva kabi yemishlarni terib-yig'ib tirikchilik qiluvchi.

Arxeologik tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi neolit davriga oid ilk dehqonchilik madaniyati mahalliy ovchi va termachi aholining o'troq holatga va dehqonchilikka o'tishi natijasida paydo bo'lgan. (I. Jabborov , Ko'hna xarobalar siri).[7]

T/r	Termin nomi	Asosi	Qo'shimchasi	Izohi
1.	JUMALIK	Juma	-lik	Juma kuni munosabati bilan o'tkaziladigan turli marosimlar.
2.	JILOVXONA	Jilov	-xona	Shoh, xon saroylariga yoki masjid hovlisiga kiraverishdagi maxsus xona yoki bostirma.
3.	YETIMXONA	Yetim	-xona	Yetimlar va qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalaydigan va o'qitadigan muassasa .
4.	TERMACHI	Terma	-chi	Tabiiy ravishda yetishgan meva, ildizmeva kabi yemishlarni terib-yig'ib tirikchilik qiluvchi.

Ko'chma ma'noda ishlatiladigan tarixga oid terminlar:

JARCHI – (tar). Odamlar ko'p to'planadigan joylarda baland ovoz bilan rasmiy e'lonlar eshittirib yuruvchi kishi .

– Ertasiga jarchilar shahar va qishloqlarda xalqni hasharga chorlab, jar chaqirdilar. J. Sharipov, Xorazm.

– Shu payt odamlarni majlisga chaqirayotgan jarchining tovushi eshitildi. (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).

– Muxammad Rahimi soniy Bahodir hazratlarining shahriston sayriga o'tlanganini ma'lum qilib, ikki jarchi ikki tomonga ot solib ketdi. (S.Siyoyev, Yorug'lik).

2) ko'chma ma'noda. Xabar-darak beruvchi.

Qushlar misoli bir jarchi, hamma narsani oldindan ilg'ashadi. To'zisa, uyga kaytib kelmasa, demak, qandaydir kor-hol albatta bo'ladi, xonadon ham to'ziydi. ("Yoshlik").

3) ko'chma ma'noda. Tashviqotchi, targ'ibot qiluvchi.

Hamid Olimjon ilm-ma'rifat, yangi hayot jarchisi bo'lib, ixlos bilan xizmat qildi. (N. Safarov , Olovli izlar).

4) malay, xizmatkor, yugurdak.

Endi barchasidan voz kechdi va o'z ichida shunday o'yladi: Boylarning jarchisi ekan. (Oybek , Tanlangan asarlar).[6]

Terminlarning omonimligi:

Tosh I – (erkaklar va xotin-qizlar ismi).

TOSH II (tar) – Sakkiz chaqirimga yaqin (taxminan 6 kilometr) uzunlik o'lchov birligi.

Bir tosh yo‘l. Ahmoqqa Quva [To‘ytepa] bir tosh. Maqol – Kun og‘ib bormoqda..Yarim toshdan mo‘lroq yo‘l yurildi hamki, bekat ko‘rinmaydi. (Nu‘mon va A. Shoahmedov, Ota).

– Kosonda ikki xumdon bor... bu yer bilan xumdonlar orasi uch tosh kelib qoladi. (Mirmuhsin, Me‘mor).

Yuqoridagi jumalarda “tosh” so‘zi omonim sifatida keltirilgan. 1-ism, 2-og‘irlik o‘lchov birligi.[7].

Keltirilgan terminlarning izohlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu terminlarni alohida bir mikrotizim sifatida o‘rganish, ularni lingvistik tahlil qilishda alohida e‘tibor berish lozim. Hozirgi shiddat bilan o‘zgarayotgan jamiyatida tarix sohasiga oid terminlarning milliy korpusini yaratish ham katta ahamiyatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili muammolari. - Toshkent: Xalq merosi, 2004.
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. Yoshlar nashriyot uyi; Toshkent – 2019.
3. Горностаев Г.Н., Забинкова Н.Н., Каден Н.Н. Латинские названия животных и растений. – М.: Изд-во МГУ, 1974.
4. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: Fan, 1996.
5. Tursunov U. Muxtorov J. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 1975.
6. Ташмухамедова, Г. Х. (2021). Медицентр университета как база для создания нового цифрового контента. Современное образование (Узбекистан), (2 (99)), 24-28.
7. Nazirov, S. H. A., Erzhonov MO, Tashmukhamedova G. KH., Tuychiyev BO Metody postroyeniya uravneniy ob" yektov fraktal'noy geometrii. Voprosy vychislitel'noy i prikladnoy matematiki. Vyp 130. Tashkent, 2014.
8. Khudaiberdievna, T. G. (2019). Actual trends in modern creative photography. World Scientific News, 119, 85-96.
9. Tashmukhamedova, G. K. (2022). Development of students'creativity on the basis of solving problem-creative tasks. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1193-1194.
10. Tashmukhamedova, G. K. (2022). Methodological aspects of students’ creativity development for the subject of “photography”. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 243-250.
11. Ташмухамедова, Г. Х. (2021). Аспекты исследования креативности у студентов в процессе изучения дисциплины «ФОТОГРАФИЯ». Экономика и социум, (2-2), 542-545.
12. Хайруллаева, Р. (2022). АДИБЛАР ЗИКРИЛЛА НЕЪМАТ ИЖОДИ ХАҚИДА. Мухаррир нашриёти, 1(1), 1-64.
13. Xayrullayeva, R. L. (2021). Ona tili darsliklarida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga samarali yondashilmoqda. Til ta‘limining uzviyligini ta‘minlashda innovatsion texnologiyalar muammo va yechimlar, 1(1), 155-158.

14. Khayrullayeva, R. L. (2021). Ways and functions of students speech development. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, 11(12), 389-393.
15. Abduqahhorova, X. A. (2021). Kundalik hayotda qo'llaniluvchi chegaralangan leksik qatlam va uning vazifalari. Актуальные вызовы современное науки, 5(59), 208-212.
16. Абдурасул, X., Абдукаххорова, Қ. (2021). ИЖТИМОЙЙ ЧЕГАРАЛАНГАН ЛЕКСИКАНИНГ НУТҚИМИЗДАГИ ЎРНИ. Scientific progress, 2(4), 886-880.
17. Abduqahhorova, X. A. Q. (2022). ONA TILI MASHG 'ULOTLARI O 'QUV TOPSHIRIQLARINING BERILISHI VA ULARNING MAZMUNI. Academic research in educational sciences, 3(5), 237-243.
18. Abduqahhorova, X. A. (2022). МАКТАБЛАРДА МУМТОЗ МАТНЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 3-6.
19. Muratova, N. B., & Abduqahhorova, X. A. Q. (2022). LISONIY BIRLIKLARNING O 'ZARO MUNOSABATLARI: KETMAKETLIK MUNOSABATI. Academic research in educational sciences, 3(3), 607-610.
20. Abduqahhorova, X. A. (2021). O 'ZBEK TIL LEKSIKASIDA IJTIMOIIY DIALEKTLAR VA ULARDA EKSPRESSIV MA'NO XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (12-2 (91)), 1005-1009.
21. Xasanova, L. F., Ashirova, M. F., & Abduqahhorova, X. A. (2021). SOME COMMENTS ON THE ETYMOLOGY OF THE WORD "IT"(DOG). Экономика и социум, (7 (86)), 574-576.
22. Abduqahhorova, X. A. Q. (2021). SO „Z TURKUMLARIARO ANTISEMIK MUNOSABATLAR. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 423-426.